

UO'K(UDC, УДК):82-091

YEVROPA VA O'ZBEK ADIBLARI ASARLARIDA ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BOBUR OBRAZINING QIYOSIY TAHLILI⁴

Anarkulova Zubayda Fayzullo qizi

O'qituvchi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Orcid ID: 0009-0007-2703-1658

E-mail: zubaydaanarkulova@gmail.com

ANNOTATSIYA

KALIT SO'ZLAR

Mazkur tadqiqot F.Vyurtlening “Andijon shahzodasi”, R.Godenning “Gulbadanbegim”, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar”, X.Sultonovning “Boburiynoma” asarlarini qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. Shuningdek, Yevropa va o'zbek nasrida bu asarlar sujet qurilishi, badiiy kompozitsiyasi, shuningdek, ijtimoiy, siyosiy va axloqiy g'oyalarining o'xshashlik hamda farqlarini o'rganish maqsadini ko'zda tutadi. Tadqiqotning maqsadi ushbu asarlarni qiyoslash orqali Yevropa va o'zbek adabiyotlari o'rtasidagi uzviy bog'liqlikni aniqlash, hamda badiiy obraz va ramziy tasvirlar orqali adiblarning qarashlarini tahlil qilishdir. Ushbu adiblar o'z asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur siymosini yoritishda o'sha davrning ijtimoiy va ma'naviy masalalarini yuqori badiiy mahorat bilan ifodalashga erishgan. Tadqiqotda asarlarning qahramon tizimi, asar sujeti, badiiy uslub va mavzulari, obrazlarning o'ziga xos va umumiy jihatlari tahlil qilingan. Mazkur izlanish buyuk shoh va shoir Boburning badiiy merosini va hayot yo'lini qiyosiy tahlil qilish orqali Bobur siymosining turli adabiy manbalar va tarixiy qarashlarda qanday talqin etilganini tadqiq etadi.

Adabiyot, siymo, roman, ijodkor obrazi, siyosiy muhit, badiiy meros, adabiy manba, tarixiy qarashlar, ramziy tasvir.

Received: March 1, 2025

Accepted: March 30, 2025

Available online: May 2, 2025

⁴ **For citation (Iqtibos keltirish uchun, для цитирования):**

Anarkulova Z. Yevropa va o'zbek asarlarida Zahiriddin Muhammad Bobur obrazining qiyosiy tahlili. // Komparativistika (Comparative Studies). — 2025. — Vol.2, № 2(6) — B. 42-56.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ОБРАЗА ЗАХИРИДДИНА МУХАММАДА БАБУРА В УЗБЕКСКОЙ И ЕВРОПЕЙСКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ

Анаркулова Zubайда Файзулла кизи

преподаватель

Узбекский государственный университет мировых языков

Orcid ID: 0009-0007-2703-1658

E-mail: zubaydaanarkulova@gmail.com

АННОТАЦИЯ

КЛЮЧЕВЫЕ СЛОВА

Данная работа посвящена сравнительному анализу произведений Ф. Вюртля «Андижанский принц», Р. Годена «Гульбаданбегим», П. Кадырова «Звездные ночи» и Хайриддина Султанова «Бабур-наме». Эти произведения рассматриваются с целью изучения сходств и различий в построении сюжета, художественной композиции, а также социальных, политических и нравственных идей в европейской и узбекской прозе. Цель исследования - выявить тесную связь между европейской и узбекской литературой путем сопоставления названных произведений, а также проанализировать взгляды писателей, выраженные при помощи художественных образов и символических изображений. При сравнительном анализе образа Захириддина Мухаммада Бабура было установлено, что писатели сумели с высоким художественным мастерством отразить в своих произведениях социальные и духовные вопросы той эпохи. В статье проанализированы система персонажей, сюжетная линия, художественный стиль и тематика произведений, а также сходные и особенные аспекты центрального образа. Посредством сравнительного анализа в данном исследовании показано, как образ Бабура интерпретируется в различных литературных источниках и какие исторические трактовки получают в них художественное наследие и жизненный путь великого правителя и поэта.

Литература,
образ, роман, фигура
творца, политическая
обстановка,
художественное
наследие, литературный
источник, исторические
воззрения,
символическое
изображение.

COMPARATIVE ANALYSIS OF THE IMAGE OF ZAHIRIDDIN MUHAMMAD BABUR IN UZBEKISTAN AND EUROPEAN WORKS

Anarkulova Zubayda Fayzullo kizi

Teacher

Uzbekistan State World Languages University

Orcid ID: 0009-0007-2703-1658

E-mail: zubaydaanarkulova@gmail.com

ABSTRACT

This study focuses on a comparative analysis of the works of F.Würtle's "Andijan Prince," R.Goden's "Gulbadanbegim" and P.Kadyrov's "Starry Nights" and Khairiddin Sultanov's "Boburiynoma." The aim of the study is to study the plot structure, artistic composition, as well as the similarities and differences of social, political and moral ideas in European and Uzbek prose. The main goal of the study is to determine the inextricable link between European and Uzbek literature by comparing these works, and to analyze the views of writers through artistic images and symbolic images. In the comparative analysis of the figure of Zahiriddin Muhammad Babur, these writers achieved a high artistic ability to express the social and spiritual issues of that time in their works. This study analyzes the hero system of the works, the plot of the work, artistic style and themes, and the specific and general aspects of the images. This research, through a comparative analysis of the artistic legacy and life path of the great king and poet Babur, shows how the figure of Babur is interpreted in various literary sources and historical perspectives, and serves to shed more light on his role and significance in spiritual, literary, and cultural development.

KEY WORDS

Literature, figure, novel, image of the creator, political environment, artistic heritage, literary source, historical views, symbolic representation.

KIRISH.

Jahon adabiyotshunosligida obraz tushunchasi estetika va adabiyotshunoslikdagi asosiy kategoriyalardan biri bo'lib, u voqelikni badiiy ifodalash vositasi sifatida insonning estetik his-tuyg'ulari, g'oyaviy qarashlari va ruhiy kechinmalarini aks ettiruvchi tushuncha sifatida e'tirof etiladi. Obraz nafaqat adabiyotda, balki musiqa, tasviriy san'at va teatr kabi san'atning boshqa turlarida ham markaziy tushuncha sifatida ahamiyat kasb etadi. San'at va adabiyot voqelikni obrazlar vositasida aks ettiradi degan qarashlar Arastu zamonasidan buyon mavjud. "Birinchi muallim" badiiy obraz tabiatini san'at nazariyasiga oid mimesis - badiiy ijodning tabiatga taqlidan voqe bo'lishiga bog'lab tushuntiradi. Badiiy obraz ijodkorning hayotiy tajribasi, fikrlash doirasi va estetik qarashlarini aks ettiruvchi maxsus vosita bo'lib, voqelikni badiiy shaklda ifodalashda o'z o'rniga ega. Badiiy obraz orqali san'atkor voqelikni mukammallashtirilgan shaklda aks ettira oladi, shuningdek, obraz o'ziga xos individuallik va umumlashma jihatlariga ega bo'ladi. Tarixiy shaxs obrazining badiiy talqini esa, yozuvchining subyektiv qarashi va obyektiv tarixiy haqiqat o'rtasidagi murakkab bog'lanishni namoyon etadi. Har bir ijodkor o'zining zamonasining ijtimoiy, madaniy va tarixiy sharoitlariga mos ravishda obrazni yaratadi, bu esa nafaqat badiiy go'zallik, balki umuminsoniy qadriyatlar va jahon xalqlari tarixiy merosni anglashda muhim o'rin tutadi.

ASOSIY QISM

XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Edmund Goss, Valter Pater, Arnol Mattyu kabi ingliz adabiyotshunoslari "obraz" tushunchasiga ko'proq estetik jihatdan yondashganlar. Ularning ishlarida obraz ko'proq badiiy tasvir sifatida ("visual depiction" yoki "verbal painting") ko'rinadi.

Shevird (G. M. Trevelyan) kabi tanqidchilar tarixiy manbalar bilan adabiyotni solishtirib, obrazni tarixiy voqelikni qisman aks ettiruvchi ramziy ifodalash usuli sifatida baholagan. Ingliz strukturalist va poststrukturalist tanqidchilari, jumladan Jonatan Culle, Terry Igleton fransuzlarda rivojlangan strukturalizm nazariyasini ingliz adabiyotshunosligiga tatbiq qilib, obraz tushunchasini "belgili tizim" (semiotic system) chegaralarida ko'rib chiqdilar. Shu tariqa, obrazga murakkab

ma'naviy darajalar, ideologik hamda ijtimoiy kodlar yuklanishi va matn ichida u turli talqinlarni keltirib chiqarishi ta'kidlanadi. Bu yondashuv "obraz"ni har doim o'quvchi yoki jamiyat prizmasidan qayta yoritiladigan, ko'p qatlamli semantik konstruktsiya sifatida ko'rsatadi. Zahiriddin Muhammad Boburning buyuk davlat arbobi, sarkarda va adib sifatidagi har tomonlama boy merosi nafaqat o'z davri, balki keyingi asrlarda ham ijodkorlar nazarida bo'lib kelmoqda. Bunga misol tariqasida Pirimqul Qodirovning "Yulduzli tunlar" romanida, Xayriddin Sultonovning "Boburiynoma" asarida hamda F.Vyurtlening "Andijon shahzodasi", Rumer Godenning "Gulbadan" nomli tarixiy-badiiy romanida Bobur siymosi turli badiiy uslublarda, rang-barang qirralari bilan tasvirlangan. Ushbu asarlarning syujeti Boburga doir tarixiy voqealarga tayanib, uning drammatizmga boy hayotini qamrab oladi. Ammo badiiy asarlarning muvaffaqiyati faqat bosh qahramonning mahoratli tasviri bilangina emas, balki uning atrofini o'rab turgan, syujet rivojida faol ishtirok etuvchi yordamchi obrazlar (epizodik yoki ikkinchi darajali personajlar) bilan ham bog'liqdir. Bunda Yevropa va o'zbek adiblarining Bobur siymosi yaratilgan tarixiy asarlarida obrazlarning funksiyasi, ularning Bobur xarakterini ochish, syujetni rivojlantirish hamda asar g'oyasini kuchaytirishdagi o'rnini xususida fikr yuritiladi.

Tahlilga tortilgan ushbu "Yulduzli tunlar", "Boburiynoma" va "Andijon shahzodasi" asarlarida Bobur obrazi atrofida uyushgan obrazlarning har biri asarda qanday funksiyalarni bajarishi ko'rib chiqamiz. Pirimqul Qodirov asarida tarixiy shaxslar hayotini badiiy talqin qilish muhim o'rin egallaydi. "Yulduzli tunlar" romanida muallif Boburning murakkab hayot yo'li, siyosiy faoliyati va shoir sifatidagi iste'dodini ko'rsatish bilan birga, uning ruhiy, ma'naviy shakllanish bosqichlariga ham e'tibor qaratadi. Ushbu jarayonda katta o'rin tutuvchi obrazlarga quyidagilar kiradi:

1.Zahiriddin Muhammad Boburning ota-onasi - Umarshayx Mirzo va Qutlug' Nigor xonim obrazlari - Boburning tarbiyasi, bolalik yillari, oilaviy rishtalari orqali uning ilk xarakteri, dunyoqarashi shakllanganini ko'rish mumkin.. Bu obrazlar Boburga bo'lgan samimiy mehr, shu bilan birga saroyning ziddiyatga

boy muhiti, turli voqealar asosida rivojlanib borgan qiyofasini ko'rsatib berishga xizmat qiladi.

2.Shuningdek Saroy maslahatchilari va amaldorlar obrazi. Boburning hukmdor sifatida qarorlar qabul qilishida undan yosh bo'lishiga qaramay, maslahat so'raydigan, unga bo'ysunadigan yoki xiyonatkor amaldorlar obrazlari. Ular orasida Uzun Hasan, Ahmad Tanbal kabi Boburga turli qiyinchiliklar, xavf tug'dirish bilan birga, uni yetakchi shaxs sifatida charxlanishiga ham xizmat qilishi tasvirlangan.

4.Romanda tasvirlangan ijodkorlar obrazi yoki ijodiy muhit vakillari. Bobur shoir, nosir, olim sifatida ham ijod qilganligi sababli atrofidagi adiblar, musiqachilar, san'atkorlar uning ma'naviy-ijodiy dunyosini to'ldirishga xizmat qiladi. Bu personajlar Boburning badiiy qirralarini, she'riyatga bo'lgan muhabbatini ko'rsatishda alohida o'rin tutadi. Mazkur asarda obrazlar shu tariqa Bobur obrazining mukammal, rang-barang tarzda shakllanishiga xizmat qiladi. Muallif ular orqali Boburning murakkab davrda ham o'z qiyofasini saqlab, yetakchi shaxs sifatida shakllanish evolyutsiyasini ko'rsatib beradi.

Nemis adabiyotining yana bir taniqli vakili Frits Vyurtlening "Bobur – Yo'lbars" nomli sarguzasht asari ham Yevropada mashhurdir. Bobur xalqaro jamoat fondining Germaniya safarlaridan birida qo'lga kiritilgan ushbu kitob avstriyalik nemis yozuvchisi va olimi Frits Vyurtlening qalamiga mansub bo'lib, Frits Vyurtle mazkur asarni shoh Boburning olamga mashhur asari "Boburnoma" voqealari asosida yozganligini ta'kidlaydi. Frits Vyurtle asosan san'at, madaniyat sohalariga oid kitoblari bilan shuhrat tutgan. Fris Vyortle asarlari orasida "Andijon shahzodasi" nomi bilan o'zbek tiliga o'girilgan "Bobur - yo'lbars" (Babur der tiger) asari alohida ahamiyatga ega. (А.Шиммел., 1947. P. 3)

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat: Yevropa va o'zbek nasrida tarixiy shaxslar obrazining badiiy gavdalantirilishi muayyan millatning etnik, madaniy va ijtimoiy normalarini mujassam etish tamoyilining yetakchiligida, tarixiy davr voqealari, faktlar, uzoq tarixda turli darajada nom qoldirgan podshohlar,

sarkardalarning murakkab hayot yo'li tarixiylik tamoyili orqali shartlanishi asoslangan.

R.Godenning “Gulbadan”, Frits Vyurtlening “Andijon shahzodasi”, P.Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Xayriddin Sultonovning “Boburiynoma” romanlarida Bobur portreti, xarakteri, syujetdagi mutanosiblik va tafovutlar Sharq hamda G'arb dunyoqarashi nuqtayi nazaridan dinamik va statik portret nazariyasi, psixologik va psixofiziologik tahlil tamoyillari asosida dalillangan. Tadqiqot jarayonida qiyosiy-tipologik, biografik, germeneytik, analitik, psixologik va kompleks tahlil metodlaridan foydalanilgan.

Shuningdek, yozuvchi X.Sultonovning “Boburiynoma” romanida ham markazda Bobur siymosi turadi. Asar nomidan ham ko'rinib turibdiki, muallif asosan Bobur izidan uyushtirilgan ekspeditsiya chog'ida tug'ilgan shaxsiy kechinmalari va Bobur Mirzo obrazi ijodiy faoliyatining ulkan qismini tashkil etishi va buning natijasi o'laroq paydo bo'lgan “Boburiynoma” – o'zi haqida “so'zlaydi”. Bu ma'rifiy romanda ham yordamchi obrazlar ko'p bo'lib, ular romanda Boburning mukammal qiyofasini yaratishda ishtirok etadilar. Ular orqali bosh qahramonning ichki kechinmalariga urg'u beriladi. Avstriyalik yozuvchi F. Vyurtlening “Andijon shahzodasi” asari, nomidan ko'rinib turibdiki, Boburning aynan Andijondagi faoliyati, bolalik va yoshlik yillari, uning dastlabki siyosiy tajribalari hamda shu davrda shakllangan shaxsiy fazilatlariga ko'proq e'tibor qaratadi.

Asarda uchrovchi obrazlarni quyidagicha guruhlash mumkin:

1.Bolalik davridagi tarbiyachi va murabbiylar. Boburning qalbi va dunyoqarashining shakllanishiga bevosita ta'sir qilgan ustozlar, tarbiyachilar, saroy muhitidagi dono kishilar Boburga erta yoshdan siyosiy vaziyatni tushunish, mulohaza yuritish, ijod bilan mashg'ul bo'lish imkonini yaratadi.

2.Saroy a'yonlari va xizmatkorlar. Yosh shahzoda Bobur bilan birga yashagan, doimiy ravishda uning yonida bo'lgan bu obrazlar Boburning shaxsiy kechinmalarini, uning oddiy odamlarga nisbatan mehr-oqibatini yoki saroydagi turli ig'vo va fitnalarga munosabatini ko'rsatuvchi o'ziga xos badiiy ko'prik vazifasini o'taydi.

3. Xavfli siyosiy muhitni aks ettiruvchi personajlar - Boburning bolalik davri ham parokanda siyosiy vaziyat, taxt talashish, xonadonlar o'rtasidagi nizolar fonida kechadi. Raqib beklar, dushman amaldorlar, hatto qarindoshlar o'rtasidagi adovat, xiyonatlar Bobur xarakteridagi ehtiyotkorlik, sinchkovlik, shijoat kabi fazilatlarni erta uyg'otadi.

4. Bolalikdagi do'stlar yoki safdoshlar - yosh Bobur bilan birga o'sgan, keyinchalik uning sodiq odamlari bo'lib qolgan do'stlar obrazi "Andijon shahzodasi"da Boburning insoniyligi, fidoyiligini ko'rsatadigan manbaga aylanadi. Ular bilan muloqotlari Boburning odilligi va insoniyligi qanday mustahkam poydevorga qurilganini yoritadi. Yuqorida keltirilgan obrazlar, xususan, Boburning o'spirinlik davridanoq yuragida paydo bo'lgan ijodiy ishtiyoq, siyosiy orzular va insoniy fazilatlarining negizini, kelajakda ulug' boburiylar sulolasiga asos solish yo'lida nimalarga duch kelganini ko'rsatib beradi.

Bobur siymosi haqida yozilgan ushbu uch asarni qiyosiy o'rganish natijasida *yordamchi obrazlarning bir qator o'xshash va farqli xususiyatlarini* ko'rish mumkin:

1. Bobur xarakterini to'ldirish - "Yulduzli tunlar"da Bobur davlat arbobi va shoir sifatida tasvirlanar ekan, atrofdagi sarkardalar, amaldorlar, ijod ahli uni har tomonlama barkamol obrazga aylanishiga xizmat qiladi. "Boburiynoma"da ko'proq Boburning lirik kechinmalari, "Boburnoma"ni yozish jarayonida unga hamroh bo'lgan insonlar, umuman Bobur shaxsiyatiga XX asr kishisi nuqtayi nazaridan baho beriladi. "Andijon shahzodasi" da esa yosh Boburning shakllanish davri, oilaviy va tarbiyaviy muhit, uning ilk sinovlarini namoyon qilishda yordamchi obrazlardan keng foydalanadi.

2. Davr manzarasini kengaytirish. Tahlilga tortilgan barcha asarlarda ham XV–XVI asr Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy parokandalik, taxt talashish, davlat boshqaruvidagi boshboshdoqliklar, ijtimoiy hayotni turli rakurslardan yoritiladi. Yordamchi obrazlar tufayli o'sha davrning murakkab vaziyatini his qilish imkoni tug'iladi.

3. Ziddiyatlar kuchayishi va bosh qahramon qalbi drammatizmi. Boburning siyosiy raqiblari, saroydagi hasadgo'ylar yoki hamfikir bo'lmagan doiralarning mavjudligi syujetni harakatga keltiradi. Bu narsa uchala asarda ham umumiy xususiyatga ega, faqat har biri muallif konsepsiyasiga ko'ra turli rakursda yoritiladi.

4. Muallif g'oyasini tasdiqlash P. Qodirov "Yulduzli tunlar"da Bobur siymosini o'z davridan baland turuvchi, ijodda ham, siyosatda ham matonatli shaxs sifatida tasvirlaydi. Yordamchi obrazlar esa bu yo'lda ko'prik vazifasini o'taydilar. X. Sultonov "Boburiynoma"da asosan Boburning inson sifatidagi qiyofasini birlamchi qiladi, yordamchi obrazlar bu ijodiy jarayonga ta'sir qiluvchi omil sifatida ko'rinadi. F. Vyurtle "Andijon shahzodasi"da Boburning yoshlik, o'smirlik davrini tasvirlash orqali kelajagakda ulug' hukmdor va ijodkor bo'lib yetishuvchi shaxsning dastlabki qiyofasini ko'rsatishni maqsad qiladi. Shu bois yordamchi obrazlar asosan tarbiyaviy ahamiyatga ega va ularning aksari oilaviy, bolalik muhitini ifodalashga xizmat qiladi.

Zahiriddin Muhammad Boburga bag'ishlangan har qanday badiiy asar, avvalo, uning shaxsiyatini, tarixiy faoliyatini va ijodini qamrab olishi bilan xarakterlidir. Biroq bu jarayon alohida qahramon timsoli bilan emas, balki unga hamroh bo'lgan, uning hayoti va faoliyatidagi turli jabhalarga daxldor personajlar orqali to'liq namoyon bo'ladi. "Yulduzli tunlar", "Boburiynoma", "Andijon shahzodasi" romanlarida yordamchi obrazlar:

- Bobur xarakterining siyosiy, ijodiy, insoniy fazilatlarini chuqur ochib beradi;
- Syujetni harakatga keltiradigan ziddiyat va voqealar manbai sifatida xizmat qiladi;
- XV–XVI asrlarning ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy muhitini boy va har taraflama tasvirlashga yordam beradi;
- Muallifning Boburga (yoki umuman tarixiy shaxsga) bo'lgan munosabatini, badiiy g'oyasini mustahkamlashga xizmat qiladi. (Qodirov P., 2010. – B. 20.)

Yuqoridagi asarlarda yordamchi obrazlar Boburning shaxsiyatini ochishda, syujetni harakatga keltirishda muhim o‘rin tutadi. Har bir asarda muallif konsepsiyasiga ko‘ra yordamchi obrazlar o‘ziga xos vazifani bajaradi. Ba‘zan Bobur siyosiy va ijodiy jihatdan kuchli shaxs sifatida namoyon bo‘lishi uchun, ba‘zan uning insoniy fazilatlarini chuqurroq ko‘rsatish uchun, ba‘zan esa yosh shahzodaning kelajakdagi buyuk shaxsga aylanish jarayonini tasdiqlash uchun xizmat qiladi. O‘sha davrning siyosiy, ijtimoiy, madaniy hayotini to‘laroq tasvirlashda yordamchi personajlar badiiy jihatdan boyitadi, ziddiyatlar hamda dramatismni oshiradi.

Yuqoridagi matnda berilgan fikrlar asosida P. Qodirov “Yulduzli tunlar”, X. Sultonov “Boburiynoma”, F.Vyurtle “Andijon shahzodasi” asarlari qiyosiy tahlilini jadval shaklida keltirishni lozim deb topdik:

Asar nomi	“Yulduzli tunlar” (P. Qodirov)	“Boburiynoma” (X. Sultonov)	“Andijon shahzodasi” (F. Vyurtle)
Bobur xarakterini to‘laqonli gavdalantirish	- Bobur siyosiy arbob va noyob iste’dod sohibi sifatida tasvirlanadi. - Davlat arboblari, oila a’zolari, asarda tasvirlangan ijod ahli uning barkamol shaxs sifatida shakllanishiga xizmat qiladi. (Murodov, G. 2000., 23-27)	- Boburning asosan lirik kechinmalari va “Boburiynoma”ni yozish jarayonidagi voqealar ko‘proq ko‘rsatiladi. Romanda voqelikka XX asr kishisi nuqtayi nazaridan baho berish orqali Bobur xarakterining turli qirralarini ochib	Yosh Boburning shakllanish jarayoni, oilaviy va tarbiyaviy muhit barkamol shaxs shakllanishidagi o‘rni ochib beriladi. Sinovlarida yordamchi obrazlardan keng foydalaniladi va Boburning shaxsiyati shakllanishiga

		beradi. (Султон X., 1997.38)	ta'sir etishi tasvirlanadi.
Obrazlar vositasida davr manzarasining ochib berilishi	XV–XVI asr Movarounnahr va Xurosondagi siyosiy parokandalik, taxt talashish, boshqaruvdagi muammolar obrazlar orqali keng yoritiladi.	- Siyosiy, ijtimoiy hayotning turli jabhalari, jumladan Boburning ichki kechinmalari bilan birga davr muhitining murakkabligi ham ko'rsatiladi.	Boburning yoshlik davridagi voqealar orqali o'sha zamonning siyosiy muhitini aniqroq tushunish mumkin. Yordamchi obrazlar asosida ijtimoiy-siyosiy muhit, oilaviy an'analar ifodalanadi.(Andijon nashriyot-matbaa. 2023. – B. 111)
Syujetning keskinlashuvi	Boburning siyosiy raqiblari, saroydagi hasadgo'y insonlar syujetni rivojlantiradi. Bu ziddiyatlar Bobur shaxsidagi drammatizmni oshiradi.	Ziddiyatlar, Boburga to'sqinlik qiluvchilar hamda uni tushunmaydigan doiralar Boburning ichki iztiroblarini ko'rsatish uchun xizmat qiladi.	Yosh shahzodaga qarshi tazyiq, sinovlar, oilaviy va siyosiy to'siqlar keltirilib, Boburning ruhiy o'sish jarayoniga ta'sir etadi. Ziddiyatlar asarda o'sib boruvchi konflikt sifatida namoyon etiladi.
Muallif badiiy konsepsiyasini amalga oshirilishi	Bobur o'z davridan baland turuvchi, ijodiy va siyosiy jihatdan matonatli shaxs. Yordamchi obrazlar muallif	Boburning avvalo inson sifatidagi qiyofasi ko'rsatiladi. Yordamchi obrazlar	Boburning kelajakda ulug' hukmdor va ijodkor bo'lib yetishuvi uchun dastlabki tarbiyaviy asoslar

	g'oyasini kuchaytirish uchun "ko'prik" vazifasini bajaradi.	Boburning ijodiy energiyani to'ldiradi, muallifning Boburga bo'lgan munosabatini yanada kuchaytirib ko'rsatadi.	yoritiladi. Yordamchi obrazlar asosan oila muhitini ifodalab, Bobur kamolotini ko'rsatishga xizmat qiladi.
--	---	---	--

Ko'p qirrali Bobur siymosini to'laqonli yoritishda obrazlar asarning badiiy qiymatini belgilovchi muhim unsurlardan biridir. Yordamchi obrazlar orqali Boburning to'laqonli qiyofasi, ijodi va tarixdagi o'rnini yanada aniqroq va yorqinroq namoyon bo'ladi. Shulardan kelib chiqib, Bobur Mirzo obrazi aks etgan Boburiynoma, Andijon shahzodasi, Gulbadanbegim va Yulduzli tunlar badiiy asarlarida obrazlarning vazifalari quyidagicha tavsiflash mumkin:

Yordamchi obrazlar vazifasi	Qisqacha tavsif	Asardan misollar
Bosh qahramon xarakterini ochishga xizmat qiluvchi obrazlar	Ushbu turdagi personajlar asarning bosh qahramoni – Bobur Mirzoning jasorati, zukkoligi, irodasi, adolatparvarligi, hissiy kechinmalarini yanada ravshanroq ko'rsatishga yordam beradi. Ular asosan Boburga nisbatan sadoqat, hamdardlik yoki unga xos bo'lgan ijobiy sifatlarini ta'kidlash orqali bosh obraz xarakterini boyitadi.	“Andijon shahzodasi” asaridagi Qosimbek, Muhammad Ulloh obrazlari
Syujetni harakatga keltirishga xizmat qiluvchi	Bu personajlar orqali asar voqealari harakatlanadi, ziddiyatlar kuchayadi yoki ularning yechimiga xizmat qiluvchi sabablar vujudga keladi. Ular syujet rivojida muhim o'rin tutib, Bobur Mirzoning qarorlari, harakatlari hamda atrofdagilarning munosabati orqali asarning dramatik tuzilishini	Ahmad Tanbal, Shayboniyxon, Tohir obrazlari

yordamchi obrazlar	mustahkamlaydi.(V.Zohidov.Bobirnom. -T.:1960)	
Davr manzarasini kengaytirishga xizmat qiluvchi yordamchi obrazlar	Ushbu personajlar Bobur yashagan davrning siyosiy, ijtimoiy va madaniy muhitini kengroq namoyon etishga xizmat qiladi. Ya'ni voqealar faqat Bobur atrofida emas, balki boshqa podshohlar, shahzodalar, vazirlar, oddiy xalq vakillari orasida kechayotgan voqealar orqali yoritiladi.	“Gulbadan” asaridagi Xumoyun Mirzo, Akbarshoh obrazlari
Asarda muallif g'oyasini kuchaytirishga xizmat qiluvchi yordamchi obrazlar	Bu turdagi obrazlar Bobur Mirzoning g'oyalari bilan hamfikir yoki unga raqib sifatida maydonga chiqib, asarning asosiy g'oyaviy yo'nalishini mustahkamlashga hissa qo'shadi. Ularning xatti-harakati, fikr-mulohazalari Boburning qarashlari bilan taqqoslanib, o'quvchida muayyan g'oya yoki xulosa shakllanishiga yordam beradi.	“Boburiynoma” tarkibiga kirgan “Saodat sohili” asaridagi Hofiz Ko'ykiy obrazi (bosh qahramonga hamfikir)

XULOSA

Zahiriddin Muhammad Bobur siymosining qiyosiy tahlili, uning tarixiy, siyosiy va adabiy merosini chuqur o'rganish orqali, uning nafaqat buyuk sarkarda, balki zamonaviy dunyoqarashi va madaniy rivojlanishdagi o'rni haqida muhim xulosalar chiqarishga imkon beradi. Bobur, avvalo, harbiy yutuqlari bilan e'tiborga molik bo'lsa-da, uning siyosiy va ijtimoiy qarashlari, asosan, uning nazariy yondashuvlaridan iborat edi. Temuriylar avlodining bir vakili sifatida, Bobur o'zining ota-bobolaridan farq qilib, ko'proq diplomatik va intellektual yo'nalishlarga e'tibor qaratdi, shuningdek, mamlakatlarni zabt etishda o'ziga xos usullarni qo'lladi.

Boburning Hindistonni zabt etishi, uning nafaqat harbiy, balki madaniy jihatdan ham muvaffaqiyatli ish tutganini ko'rsatadi. Bu, shuningdek, Boburning

o‘zining adabiy faoliyati va “Boburnoma” asari orqali tarix va insoniyat tarixiga qo‘shgan hissasini namoyon etadi. Boburning siyosatidagi ehtiyotkorlik va madaniyatni rivojlantirishga bo‘lgan qiziqishi uni boshqa sarkardalardan ajratib turadi

Shuningdek, Boburning siyosiy va adabiy merosi, Iskandar Makedonskiy va Temur kabi buyuk shaxslar bilan qiyoslanganda, uning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib beradi. U harbiy muvaffaqiyatlaridan tashqari, o‘zining ichki dunyosini, shaxsiy kurashlarini, va madaniyatga bo‘lgan yondashuvini ochib bera olgan shaxs sifatida tarixda o‘rin egallaydi. Zahiriddin Muhammad Bobur nafaqat tarixda, balki adabiyot, siyosat, madaniyat va insoniyat tafakkurida ham iz qoldirgan buyuk shaxsdir. Uning siyosiy qarashlari, adabiy merosi va tarixiy roli bugungi kunda ham o‘rganilmoqda va qadrlanmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ahrorovna N. N., & Marjona, M.. Essential Memory Improving Techniques in Teaching and Learning Process. “Online - conferences platform”, 2021. - 62–68.
2. ШИММЕЛ А. Woertle F. Babur der Tiger. – Wien: 1947. – P. 3.
3. Султон Х. Бобурийнома. Маърифий роман. – Т.: Шарқ, 1997.
4. Qudratullaev H. Boburning adabiy-estetik qarashlari. -T.: Fan, 1983;
5. Murodov, G. —Yulduzli tunlar romanida badiiy kodlar // BuxDU ilmiy axborotlari. 1-son. – Buxoro, 2000. – B. 23-27.
6. Asrlar uzra porlagan siymo. Ilmiy konferensiya materiallari. Bobur nomli xalqaro jamoat fondi. – Andijon: Andijon nashriyot-matbaa. 2023. – B. 111.
7. Qodirov P. Yulduzli tunlar. Bobur. – T.: Sharq, 2010. – B. 20.
8. V.Zohidov. Bobirning faoliyati va ilmiy-adabiy merosi haqida. Kitobda: Bobir. Bobirnama. -T.:1960;
9. Xayriddin Sulton. Boburiynoma. -T.:1996
10. X.Nazarova.”Boburnoma” tilining sintaktik qurilishi. Dokt. diss. — T.: 1980;
11. Yakubov, I. “Boburnoma” - o‘zbek nasrining nodir yodgorligi. “Zahiriddin Muhammad Boburning Sharq davlatchiligi va madaniyatida tutgan o‘rni”

mavzusidagi xalqaro ilmiy-nazariy konferensiya materiallari, Toshkent, 2023 pp.174-179.

12. Сопиева Ш. Р. Хайриддин Султоннинг ҳикоянавислик маҳорати. – филол. фан. номз. дисс. – Т.: 2006.

REFERENCES

1. Ahrorovna N. N., & Marjona, M. (2021) *Essential Memory Improving Techniques in the Teaching and Learning Process*. “Online conferences platform”, 62-68.
2. Schimmel A., Woertle F. (1947) *Babur the Tiger*. Vienna. P. 3.
3. Sulton H. (1997) *Baburiynoma. Educational novel*. Tashkent. Sharq.
4. Qudratullaev H. (1983) *Babur's Literary and Aesthetic Views*. Tashkent. Fan.
5. Murodov, G. (2000) *Artistic codes in the novel “Starry Nights”* // Scientific Bulletin of Bukhara State University. Issue 1. Bukhara, P. 23-27.
6. *A figure shining through centuries*. (2023) Proceedings of the scientific conference. Babur International Public Foundation. Andijan. Andijan Publishing House. P. 111.
7. Qodirov P. (2010) *Starry Nights. Babur*. Tashkent. Sharq. P. 20.
8. V. Zohidov. On Babur's activities and scientific-literary heritage. In the book: *Bobur. Boburnoma*. Tashkent. 1960
9. Xayriddin Sulton. (1996) *Boburiynoma*. Tashkent.
10. X. Nazarova. (1980) *Syntactic structure of the language of “Boburnoma.”* Doctoral dissertation. Tashkent.
11. Yakubov, I. (2023) *“Boburnoma” - a rare monument of Uzbek prose*. Proceedings of the International Scientific-Theoretical Conference “The Role of Zahiriddin Muhammad Bobur in the Statehood and Culture of the East,” Tashkent. pp.174-179.
12. Sopieva Sh. R. (2006) *Xayriddin Sulton's storytelling skills*. Philological Sciences Candidate dissertation. Tashkent.